

**TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI: ILG'OR TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

AXBOROT XATI

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida 2023-yil 15- noyabr kuni **“Sifatli ta'limni tashkil etishda shaxs kreativ potensialini oshirishning dolzarb masalalari”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkaziladi.

Respublika ilmiy-amaliy anjuman videokonferensaloqa tarzida o'tkazilishi rejalashtirilgan va @ jizzax konferensiya telegramm kanalida zoom havolasi ilova qilinadi.

Anjuman tillari: o'zbek, rus.

Anjuman maqsadi: Ta'lim tizimini rivojlantirishda sifatli ta'limni tashkil etish orqali shaxs kreativ potensialini oshirishning zamonaviy tendensiyalari asosida ilg'or tajribalar va rivojlanish istiqbollari o'rganish asosida tizimda duch kelinayotgan muammolar va uning yechimlarini o'rganish o'zaro tajribalarni tahlil qilgan holda samarali yechimlarni umumlashtirish.

Anjuman sho'balari:

- Ta'lim tizimini rivojlantirishda shaxs kreativligini rivojlantirishning ilg'or tajribalarining ilmiy nazariy asoslari;

- Ta'lim tizimida shaxs kreativligining rivojlantirishdagi metodik ta'minot va uning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llari;

- Ta'lim tizimini rivojlantirishda shaxs kreativligining rivojlantirish asosida hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan holatlar va vaziyatlar tahlili;

- Ta'lim tizimini rivojlantirishda STEAM texnologiyasini o'rni;

- Ta'lim tizimini rivojlantirishda shaxs kreativligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalari asosida takomillashtirish usullari;

Anjuman doirasida quyidagi ish shakllari rejalashtirilgan:

1. Yalpi majlis;
2. Sho'balar ishi.

Anjumanda ishtirok etish uchun materiallarni (maqolalarni) **elektron shaklda 2023-yil 10-noyabrga qadar yuborish kerak.**

E-mail: tilakovamavjuda@yandex.com mavjudatilakova92@gmail.com

Tashkiliy masalalar va to'plamni chop etish xarajatlarini qoplash uchun maqolaning har bir sahifasiga 15 000 (o'n besh ming) so'm miqdorida badal puli oldindan to'lanadi. Konferensiya ishtirokchilariga elektron holda sertifikat va konferensiyaning ilmiy to'plami beriladi.

Materiallarni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar:

1. **Maqola hajmi** – 3 betdan kam bo'lmasligi talab etiladi. Maqola ilmiy uslubda yozilishi, mantiqiy tuzilmaga ega bo'lishi (muammo va vazifalarni

qo'yish, metodlar va tadqiqot metodikalarini asoslash bilan asosiy materialni, olingan natijalar, xulosalarni kiritish).

2. **Maqola nomi** – bosh harflar, yarim qora shriftda markazga joylashtiriladi. Sarlavhalar oxirida nuqtalarga yo'l qo'yilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi – maqola nomidan keyingi satrda: kursiv, markaz bo'ylab joylashtiriladi.

Tashkilot nomi, E-mail – mualliflarning ismi va familiyasidan keyingi satrda: kichik harflarda, markaz bo'ylab joylashtiriladi.

3. **Maqola matni** – mualliflar haqidagi ma'lumotlardan so'ng bir interval tashlab beriladi.

Materiallarni Windows uchun Microsoft Word matn muharririda tayyorlash zarur (97-2003).

Matn o'zbek (lotin grafikasida), rus, ingliz tillarining birida Microsoft Word muharriridan foydalangan holda Times New Roman shriftda, 14 o'lchamda, 1,5 intervalda, varaqning chap tomonidan 3 sm, yuqori va pastidan 2 sm, o'ng tomonidan 1,5 sm joy qoldirilgan holda tayyorlanadi.

Maqolalar tahrir hay'ati tomonidan qayta tahrirlanadi. Belgilangan talablarga javob bermaydigan maqolalar konferensiya materiallari to'plamiga kiritilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Bayon etilgan ma'lumotlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi va metodik jihatdan puxta ishlanganligi uchun muallif(lar) mas'uldir.

Adabiyotlar ro'yxati – maqola matnidan so'ng bir interval tashlash. Adabiyotlar ro'yxati – shrift 14. Adabiyot manbalariga havolalar – matn ichida, masalan: [7] yoki [9, 3-b]. Foydalanilgan adabiyotlar kamida 5 ta manbani o'z ichiga olishi kerak. Adabiyotlarni rasmiylashtirish namunasiga qarang.

Tashkiliy qo'mita manzili:

Manzil: Jizzax shahar, I.Karimov ko'chasi 1-uy;

Elektron manzil:jizzax pymo`mm_konf@inbox.uz;

To'lovni amalga oshirish: karta raqam 9860160139720215

Mas'ullar:

Rizayeva Shalola– Konferensiya koordinatori (998 93 650 15 91)

Xaydarov Sherzod– Konferensiya koordinatori (998 99 048 81 12).

Mo'minjonova Muhayyo– Konferensiya koordinatori (998 91 188 22 82)

RASMIYLASHTIRISH NAMUNASI

PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

***A.R.Meliboyev Jizzax viloyati pedagogika markazi, pedagogika fanlari bo'yicha
fan nomzodi , dotsent***

Annotatsiya (o'zbek, rus, ingliz tillarida).

Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni. Maqola matni.

Adabiyotlar:

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI PEDAGOGLARNI
YANGI METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

“TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA SHAXS
KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING
DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy-
online konferensiya

MATERIALLARI



**Jizzax
2023**

“Sifatli ta’limni tashkil etishda shaxs kreativ potensialini oshirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi yosh olimlar, doktorantlar, magistrant va talabalarning an’anaviy Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari - Jizzax viloyati: Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi nashri, 2023 yil.

Ushbu to’plamga konferensiya mavzusidan kelib chiqqan holda respublikamizda Yangi O‘zbekiston yillarida amalga oshirilayotgan ta’lim va tarbiyaga bo‘lgan e’tibor, pedagogika va psixologik ta’lim tarbiya jarayonlari, shaharsozlik, arxitektura, qurilish, iqtisodiyot va boshqa sohalarni rivojlantirishning dolzarb muammolari, zamonaviy bunyodkorlik sohasida olib borilayotgan ilmiy-amaliy izlanishlar natijalari, mulohazalar va takliflar kiritilgan.

Konferensiya materiallari Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi Ilmiy kengashining qarori asosida nashrga tavsuya etildi (Bayonnoma N10.2023 yil)

Tahrir hay’ati

- 1. A.Sh.Xolmurodov** Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi direktori, pedagogika fanlari doktori (DsC)
- 2. Sh.Abdurashidov** Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi direktor o‘rinbosari.
- 3. M.A.Tilakova** Pedagogika va psixologiya ta’lim texnologiyalari kafedra mudiri. p.f.d.(PhD), v/b. dots
- 4. Sh.M.Haydarov** Tillarni o‘qitish metodika kafedrasini dotsenti. f.f.n.
- 5. M.Mo‘minjonova** Pedagogika va psixologiya ta’lim texnologiyalari kafedrasida o‘qituvchisi
- 6. Sh.X.Xaydarov** Pedagogika va psixologiya ta’lim texnologiyalari kafedra o‘qituvchisi
- 7. Sh.M.Rizayeva** Pedagogika va psixologiya ta’lim texnologiyalari kafedra o‘qituvchisi
- 8. N.Qurbonov** Pedagogika va psixologiya ta’lim texnologiyalari kafedrasida v/b. dotsenti. p.f.d.(PhD),
- 9. J. Mardonqulov** Tabiiy va aniq fanlar kafedrasini mudiri p.f.d.(PhD), v/b. dots
- 10. A.Meliboyev** Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasini mudiri.p.f.n. dots
- 11 P.Xolmatov** Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim metodikalari kafedrasini mudiri p.f.n.dots

1. Косякова О. О. Логопсихология : учебное пособие/ Ольга Олеговна Косякова, Ростов - на - Дону : Феникс. 2007, 284 с.
2. Коробейников И. А. Нарушения развития и социальная адаптация. - М.: ПЕРиСЕ, 2002 .
3. Морозова Е. А. Психологические аспекты к новым условиям воспитания детей раннего возраста с психофизическими нарушениями. Дим. канд.психол. наук.- М.:1999.
4. Захаров А. И. Предупреждение отклонений в поведении ребёнка. СПб, 2000.
5. Dehqonova, M. (2023). THE FIRST STAGES OF ENSURING CONTINUITY IN THE ELIMINATION OF SPEECH DEFECTS OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN. Science and innovation, 2(B2), 55-58.
6. G'iyosiddinova, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 4(1), 101-105.
7. G'iyosiddinova, D. M. (2022). 4+ 2 TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 389-393.
8. Feruzakhon, Q., Khusnora, Y., & Dinara, A. (2022, April). Peculiarities of the psyche of deaf and hard of hearing children. In Next Scientists Conferences (pp. 24-27).
9. Muborak, D., & Lobar, S. (2022). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQNING KECH RIVOJLANISHI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 345-349.

ISHMATOVA O. S.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti "Maxsus pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi
KRAVCHENKA A.P., KARIMOVA R.R.
ABDURAXIMOVA Y.F. KARIMOVA S.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI DISLALIK O'QUVCHILARIDA FONEMATIK IDROKNI VA BARMOQLAR HARAKATCHANIGINI TEKSHIRISH JARAYONI.

Annatsiya: Ushbu maqilada kichik maktab yoshidagi dislalik o'quvchilarida fonematik idrokni va barmoqlar harakatchanigini tekshirish jarayoni borasida so'z yuritiladi.....

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс тестирования фонематического восприятия и движения пальцев у учащихся младших классов с речевым диагнозом дислалия....

Annatation: This article discusses the process of testing phonemic

perception and finger movement in elementary school students.

Fonematik idrokni rivojlantirish logopedik ishning dastlabki davrlaridanoq olib boriladi hamda yakka, guruhli mashg'ulotlarda o'yin ko'rinishda o'tkaziladi. Korreksiya logopedik ish avval nutqsiz tovush materiallaridan boshlanadi va sekin asta nutqdagi hamma tovushlarni o'z ichiga oladi.

Disaliya bu (grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis-qisman, laliya-nutq dedan ma'noni anglatishi)funktional eshituv va nutq apparati innervatsiyasi saqlangan holatda tovushlar talaffuzining buzilishidir. Fonemati idrok esa tovushlarni eshitib idrok qilish tushuniladi.

Dislaliyaning 7 xil turi mavjud²¹:

-Sigmatizm (sirg'aluvch, shovqinli tovushlarning nuqsonga uchrashi)

-Ratatizm (r tovushining nuqsonga uchrashi)

-Kappatizm (til orqa va chuqur til orqa tovushlarning nuqsonga uchrashi)

-Gammatizm (G tovushining nuqsonga uchrashi)

-Xitizm (X tovushining nuqsonga uchrashi)

-Yotatizm (yolashgan unilarning nuqsonga uchrashi)

-Lambdatizm (L tovushining nuqsonga uchrashi)

Statistik ma'lumotlarga ko'ra hozirda 4 yoshli bolalarning 25% da bunday nutqiy nuqsonlar kuzatilar ekan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning esa har 5 nafaridan birida displaliya kuzatilayotgani amaliyotdan ma'lum. Nutqiy nuqson maktabgacha yoshda bartaraf etilmasa, maktab yoshiga kelib, bu nuqson o'zi bilan ikkilamchi nuqson , ya'ni disleksiya va disgrafiya nutq kamchiliklarini ergashtiradi. Disgrafiya bu o'qish jarayonining qisman buzilishi, disleksiya bu yozish jarayonining qisman buzilishi demakdir.

Birinchi mashg'ulotlardanoq fonematik idrokni rivojlantirish bilan parallel ravishda eshitish diqqati va eshitish xotiralari ustida ish olib boriladi. Bu esa fonematik idrokni rivojlantirishda eng samarali va jadallashtirilgan natijalarga erishishga imkon beradi. Bu juda muhimdir, chunki atrofdagilar nutqini eshita bilmaslik tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaslik sabablaridan biridir.

Logopedik mashg'ulotlar jarayonida bola o'z talaffuzini nazorat qila olishi va o'z nutqini atrofdagilar nutqiga taqqoslash asosida

²¹ M Ayupova Logopediya 2007 yil Toshkent

talaffuzidagi kamchiliklarni to'g'rilay olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Bolalarda fonemalarni farqlay olish qobiliyatini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan hamma logopedik ishlar tizimini shartli ravishda olti davrga bo'lish mumkin deydi Achilova. Unga ko'ra davrlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. davr-nutqsiz tovushlarni bilish.
2. davr-bir xil tovush, so'z birikmasi va iboralarda ovozning balandligi, kuchi, tembrini ajratish.
3. davr-tovush tarkibi bo'yicha o'xshash so'zlarni ajratish.
4. davr-bo'g'inlarni farqlash.
5. davr-fonemalarni farqlash.
6. davr-tovushlarni oddiy tahlil qilish malakalarini rivojlantirish.

S.J. Achilovaning fikricha dislaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik idrokni rivojlantirish ishlari yakka va guruhli mashg'ulotlar o'rtasida doimiy ravishda ham logoped va tarbiyachi tomonidan olib borish mumkin. Tashkil qilinayotgan mashg'ulotlarda bolalarning nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlarni farqlashga ham e'tibor berilishi kerak.

Biz tadqiqotimizda S.J. Achilovaning taklif etgan metodikasidan foydalangan holda quyidagicha tekshiruv usullarini tanlab oldik. S. Achilova maktabgacha yoshdagi bolalarning fonematik idroki ustida ishlagan bo'lsada, avtor tomonidan taklif etilgan metodikalarda sxemalilikka e'tibor qaratilganligi va izchilikda tekshirish olib borishga qulay ekanligi boisidan biz ushbu usullarni tekshiruv metodikasi sifatida tanlab oldik va boshlang'ich sinf dislaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarga moslashtirdik.

Dislaliya nutq kamchiligiga ega bolalarning fonematik idroki holatini, uning buzilish sabablarini tekshirishda noto'g'ri talaffuz etiladigan tovushlar bilan bir qatorda, to'g'ri talaffuz qilinadigan tovushlarni farqlash imkoniyatini beradi.

Har bir bola alohida tekshiriladi va tekshirish natijalari nutq kartasiga qayd etib boriladi. Bolalarga topshiriqlar og'zaki usulga beriladi. Fonematik idrokni tekshirishda maxsus logopedik albomdan foydalangan holda, quyidagi topshiriqlardan foydalanildi:

1-ETAP: Fonematik idrokni tekshirish usuliari:

1-topshiriq. Bir qator tovushlar ichidan ma'lum tovushni ajratish: masalan


"K" tovushini eshitsang qo'ng'iroqchani chal.

a) s, d, k, r, j, k, l, z, k

b) z, k, m, v, k, ch, t, k, g v) q, x,
f, r, k, d, p, k

2-topshiriq.

2A variant: Bir qator bo'g'inlar ichidan ma'lum bo'g'inni ajratish: masalan "za" bo'g'inini eshitsang qo'ng'iroqchani chal.



2A variant topshiriq

2B variant: Bir qator bo'g'inlar ichidan ma'lum tovush ishtirok etgan bo'g'inni eshitib ajratish va kartadan o'chirish: masalan "z" bo'g'inini eshitsang qo'ng'iroqchani chal.

a) ka, ta, za, ra, ga, za b) da, za, la, cha, za, s

v) pa, sa, za, ba, ja, za

3-topshiriq.


3A variant: Bir qator so'zlar ichidan "sh"

tovushi ishtirok etgan so'zlarni eshitsang chapak chal. a) bosh, bol, shoh, tor, shar b) olma, tasha, dala

v) shamol, pashsha, kalish

3B variant: logoped bir qator so'zlarni talaffuz etadi, bola ular ichidan "sh"

tovushi ishtirok etgan so'zlarni eshitsang kartochkadagi shu so'zni topib tagiga chizadi. a) bosh, bol, shoh, tor, shar b) olma, tasha, dala



3B variant topshiriq 'i

s) shamol, pashsha, kalish.

4-topshiriq.

4A variant: Artikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin tovushlarni logoped ketidan qaytarish:

z-s, s-z, d-t, t-d, b-p, p-b, sh-j, j-sh, k-g, g-k, r-l, l-r, ch-j, j-ch

4B variant: Artikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin tovushlarni logoped og'zidan eshitib, chiziqcha bilan yozib borish :

z-s, s-z, d-t, t-d, b-p, p-b, sh-j, j-sh, k-g, g-k, r-l, l-r, ch-j, j-ch

5-topshiriq.

5A variant: Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni logoped

ketidan takrorlash:

- a) gul-kul, bol-pol, tuz-tus, jar-shar...
- b) jo'ja-go'ja, etik-eshik, sayr-sayl...
- v) kitob-shitob, bolta-bolg'a, tovush-tovus...

5B variant: Logoped tomonidan bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni aytiladi, o'quvchi daftariga so'zlarni chiziqcha bilan yozadi:

- a) gul-kul, bol-pol, tuz-tus, jar-shar...
- b) jo'ja-go'ja, etik-eshik, sayr-sayl...
- v) kitob-shitob, bolta-bolg'a, tovush-tovus...

6-topshiriq.

6A variant: Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarga rasm tanlash: "mana bu rasmlar ichidan nomi bir tovush bilan farq qiladigan rasmlarni ajratib ber".

Olma-olcha, stol-stul, paxta-taxta, shapka-shashka, mashina-malina...

6B variant: Taklif qilingan kichkina matndagi xatolarni toppish.

“Ur to'qmoq” ertagi

(namunaviy tekst)

Biy boy ekan, biy yo'q ekan, biy kampiy,
bilan biy chol boy ekan. Ulay ovchilik bilan kun
o'tkazay ekanlay. Biy kun chol tuzoq poylab
o'tiygan ekan. tuzoqqa katta biy laylak tushibdi.
Yugurib borib laylakni tuzoqdan chiqayibdi,
laylak odamdek so'zlamoqqa boshlabdi:



— Chol, men laylaklayning boshlig'iman, meni qo'yib yuboy, nima tilasang shuni
beyaman. Mening makonim shu qayshidagi tog'ning oyqasida. «Laylakvoyning
uyi qaeyda», desang, hamma aytib beyadi, — debdi....

6B variant topshirig'i

2-ETAP Fonematik tasavvurni tekshirish.

Bunda bolalarni quyidagi topshiriqlar yordamida tekshirdik.

1) Nomlari oppozitsion tovushlar bilan boshlanadigan buyumlarga oid rasmlarni ikki guruhga ajratish. Masalan, s-sh, s-s, ch-s, z-j, r-y.

2) "Menga nomi s tovushi bilan boshlanadigan rasmlarni chap tomonga ajratib ber". Bu topshiriqda bolaga "s" va "sh" tovushi so'zning boshida kelmagan hamda umuman qatnashmagan rasmlar ham berildi. 2) Nomlari jarangli va jarangsiz tovushlar bilan boshlanadigan predmetlarga oid rasmlarni ikki guruhga ajratish. Masalan, z-s, v-f,d-t, b-p, k-g, j-sh.

3) Berilgan tovush ishtirokida so'z tuzish: "Menga "k" tovushi ishtirok etgan so'zlarni aytib ber". Bolaga namuna tarzida "k" tovushi ishtirok etgan bir so'z aytili.

4) 4) Ma'lum tovushga rasm tanlash: "mana bu rasmlar ichidan nomida "l" tovushi ishtirok etgan rasmlarni bir tomonga ajratib ber".

3-ETAP: Tovushlar tahlilini tekshirish.

Tovushlar tahlilini tekshirishda quyidagi topshiriqlardan foydalanildi:

1-topshiriq.

1. So'z boshidagi tovushni aniqlash: "men aytgan so'zlarimni eshitib ularning birinchi tovushini aytasan".

a) ariq, odam, uzuk, uzum, o'rik, echki..

b) shamol, bahor, karam, ro'mol...

v) daftar, maktab, telpak, qo'lqop...

2- topshiriq. So'zdagi kerakli tovushlarni aniqlash: "eshitgan so'zlaring orasida "d" tovushi so'zning qayerida kelganini ayt". Topshiriq bolaga bir misol yordamida tushuntirib beriladi.

a) doska, deraza, dazmol...

b) oydin, parda, bug'doy...

v) poyezd, zumrad, poroxod...

3-topshiriq.

3.3A variant: Tovushning so'zdagi o'mini aniqlash: "eshitgan so'zingda uchinchi (ikkinchi, to'rtinchi) bo'lib qanday tovush kelyapti?".




a) arqon, oshpaz, anjir...

b) buzoq, ro'mol, kalit

3.3B variant: Tovushning so'zdagi o'mini aniqlash: "eshitgan so'zingda uchinchi (ikkinchi, to'rtinchi) bo'lib qanday tovush

kelyapti?".

- a) arqon, oshpaz, anjir...
- b) buzoq, ro'mol, kalit



Bunda bolalar so'zlar uychasidan foydalangan holda ishlaydilar.

4-topshiriq. Tovushning so'zdagi keima-ketligini aniqlash:

- a) ota, choy, gul, til...
- b) buvi, kosa, soat, piyoz...
- v) gilos, sochiq, zirak, randa...

5-topshiriq. So'zdagi tovushlar sonini aniqlash: "eshitgan so'zningda nechta tovush bor?".

- a) ot, in, un, el, ip, oy, it....
- b) ari, bir, don, fil, tish...
- v) sigir, tulki, ruchka, gilam...

4-ETAP: Tovushlar tarkibini tekshirish.

Buning uchun bolalarga quyidagi topshiriq.

1-topshiriq. Ketma-ket tovushlardan so'z tuzish: "men tovushlar aytaman, sen ular ishtirokida so'z tuzasan".

- a) ch-o-l, k-o'-z, q-u-sh, s-o-ch...
- b) b-o'-r-i, a-r-ch-a, e-ch-k-i.
- v) p-i-ch-o-q, q-o-g-o-z, t-o-v-u-s.

2-topshiriq. Ketma-ketligi buzilgan tovushlardan so'z tuzish:

- a) ya, u, t, (tuya, uyat); o sh, b (bosh); g, z, o (g'oz)
- b) o, l, b, a (bola); ch, l, o, a (olcha); r, o', k, i, (o'rik) v) b, u, z, q, o (buzoq); t, r, a, u, n (turna); l, a, n, g, a (lagan)

Tekshirish davomida tekshirilayotgan har bir tovushga alohida rasm tanlandi. Rasmlar quyidagi prinsiplarga asoslangan holda tanlandi:

- ma'lum bir tovush ishtirok etgan rasm;
- ma'lum bir tovushga yaqin tovush ishtirok etgan
- ma'lum bir tovush ishtirok etmagan rasm.

Tekshirish uchun tanlangan metodikalarni har bir bolalda individual va frontal shaklda olib bordik.

D.A.Nurkeldiyeva, M.Y.Ayupova z, Z.M.nazariyasiga ko'ra, bolaning qo'l panjasi va barm oqlarini harakatlantirish o'ziga xos rivojlantiruvchi ta'sirga ega ekani isbotlangan. Mutaxasislarning ta'kidlashicha, qo'l va barmoqlar ishtirokidagi o'yinlar tana va ongning o'zaro bo'liqligini ta'minlaydi. Qo'lning oddiy harakatlari nafaqat qol balki lab, yuz mushaklari zo'riqishlarini susaytiradi, aqliy nuqsonlarning kelib chiqishini oldini oladi, tovushlar talafuzini yaxshilashga ham yordam beradi. Barmoqlarning mayda harakatlari bo'g'inlar artikulyatsiyasiga o'ziga xos ta'sir etadi. Barmoqlar rivojlanishi evaziga miyada nutqning ravon bo'lishi kuzatiladi. Barmoq mashqlari nafaqat qiziqarli, balki maroqlihamdir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda barmoq mashqlaridan foydalanish bolaga kompleks yondoshishga imkon beradi. Barmoq mashqlarining nutq ishtirokida bajarilishi esa ko'nikmalarning shakllanishiga va mustahkamlanishiga yordam beradi. Quyida tavsiya etilayotgan barmoq mashqlari uch martadan besh martagacha avval bir qoida, so'ngra esa ikkinchi qolda va nixoyat ikkala qolda bajariladi. Logopedlar, ota-onalar bolaning mashqlarni to'g'ri bajarishi, bir harakatdan ikkinchisiga aniq o'tishini kuzatib turishlari lozim.

Dislaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning barmoqlar harakatchanligini tekshirish usullarining ham juda xilma-xillari mavjud, Biz avvalo bolalarning ish daftarlarini tahlil qildik. Savodga o'rgatish, yozuv daftarlaridagi qo'lyozmalari bolalardagi barmoqlar harakatidagi kamchiliklarni yaqqol namoyon etib turar edi. Tekshiruv yanada chuqurlashtirilgan va aniqroq bo'lishi uchun S.J. Achilovanning taklif etgan metodikalaridan foydalandik.

Barmoqlar harakatchanligini tekshirish usullari:

1-topshiriq. Bolaning qo'l harakatlarini tekshirish. "Avval o'ng qo'lingni so'ng chap qo'lingni ko'tar".

2-topshiriq. Qo'llarning uloqtirish va ushlab olish texnikasi tezligini tekshirish. «Koptokni do'stingga uloqtir va do'sting senga uloqtirgan koptokni ushlab olishga harakat qil 1 marta»

3-topshiriq. Bolaning oyoq harakatlarini tekshirish."Avval o'ng oyog'ingni so'ng chap oyog'ingni ko'tar".

4-topshiriq. Bolaning ikkala oyoq bilan bir vaqtda harakatlanishni tekshirish. Logoped boladan bir joyda 2 marta o'tirib turishni so'raydi.

5- topshiriq. Bolaning ikkila qo'l bir vaqtda harakatlanishni tekshirish.

Logoped boladan ikkala qo'lini tepaga va pastga 2 marta ko'tarib tushurishni so'raydi.

6- topshiriq. Bolaning tana muvozanatini ushlay olish va oyoqlar harkatini rivojlanganlik holatini aniqlash. Polga uzun lenta yotqiziladi, so'ngra boladan shu lenta orqali yurish so'raladi (5, 6 qadam).

7-topshiriq. Bolaning qo'l harakati yordamida aniq geometric shallarni chiza olishni tekshirish. Logoped boladan oq qog'izga uch burchak chizish so'raladi.

8-topshiriq. Bolaning geometrik shakl chizish orqali barmoqlar uchi va predmetni ushlay olish harakatini tekshirish. Boladan oq qog'ozga to'rt burchak chizish so'raladi.

Alfavitdagi harflardan ko'ra jonli nutqda tovushlar xilma-xilligi ko'proq deb hisoblaymiz, nutqning barcha tovushlari bugungi alifbomizga harf holatiga keltirilmagan deb o'ylaymiz. Nutq orqali talaffuz etiladigan tovushlar bugungi kunda biz o'rganayotgan alfavitdagi harflardan ko'ra birmuncha ko'proq. Fonemani to'liq va aniq talaffuz qilish mumkin emas, faqatgina ularning ayrim ohanglari talaffuz qilinadi. Bizningcha fonema – umumiy va haqiqiy talaffuz qilingan tovushdir.

Fonemik idrok-so'zning tovush tuzilishini o'rnatish uchun maxsus aqliy jarayon bo'lib, u nutq tovushlarini idrok etish va farqlash qobiliyati hisoblanadi. Fonemik idrokning benuqson rivojlanishi bolaning o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zlashtirishida eng muhim va asosiy o'rinda turadi.

Biz toondan tanlab olingan tekshiruv metodikalari o'quvchilarning yoshiga moslashtirildi va bu bizga tekshiruvning qiziqarli va maroqli o'tishiga zamin yaratdi. O'quvchilar ham individual va ham frontal ishladilar.

Xulosa qilib shuni aytish joiz-ki, tanlangan tekshiruv metodikalari takomillashtirilsa, ular judayam samarali rivojlantiruvchi indikator bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, biz quyida o'qituvchi va logopedlarga ushbu usullarni har bir darsda ishlatishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. M Ayupova LOGOPEDIYA Toshkent-2007
2. S.J. Achilova "Dislaliya Dizartriya" Chirchiq-2021
3. Ishmatova, O. S. (2022). Nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda fonetik ritmikaning roli. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 378-380.

4. Ishmatova, O. S. (2022). FONETIK RITMIKA TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHDA AKT NING ROLI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 781-786.

5. Ishmatova, O. S. (2022). ROLE OF PHONETIC RHYTHM IN CORRECTION OF SPEECH DEFECTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 487-491.

6. Ishmatova, O. S. PHONETIC RHYTHMIC EXERCISES IN WORKING ON SPEECH SOUNDS.

7. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. Chirchiq, 1(1), 70.

Saytlat:

1. <https://nsportal.ru/detskiy-sad/logopediya/2022/01/24/statya-na-temu-statistika-rechevyh-narusheniy>

2. <https://www.cnews.ru/news/line/2020-10-30-roditeli-smogut-diaagnostirovat>

JABBOROVA ETIBOR TOSHTEMIROVNA

Sharof Rashidov tumani

6-umumta'lim maktab

MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA NIZOLARNING OLDINI OLISH

Yosh talabalar o'rtasidagi ziddiyat hech qachon rejalashtirilgan tarzda yuzaga kelmaydi. Ko'pincha, boshlang'ich maktab o'quvchilarining nizolarini xatto mojarolar deb atash qiyin. Bu ko'proq o'zaro qarama-qarshilik. Bolalar o'zlari bilmagan holda, faqat g'alaba qozonish istagi bilan bahsga kirishadilar.

Ular qanchalik og'riqsiz o'tishi ko'p jixatdan o'qituvchiga bog'liq. Bu erda asosiy narsa - o'qituvchining bolalarga yaxshi munosabati. Tajribali ustoz har qanday mojaroni bemalol hazilga aylantira oladi. Bunday vaziyatlarda yomon emas «mirilki» - «orangizda tinchlik, bir piyola pirog» kabi iboralar ... Odatda bu bolalarning g'azabini qoplaydigan kulgiga sabab bo'ladi. Bolalar bir-birlari bilan qo'l silkitgandan so'ng, ular darhol butunlay boshqacha harakat qilishni boshlaydilar. O'yinda bolalarni yarashtirish eng samarali hisoblanadi. Aytishimiz mumkinki, bolalarning har biri g'olib. Axir u raqibining ko'ziga qarashga, unga qo'l cho'zishga muvaffaq bo'ldi.

Hammasidan ko'proq **o'g'il bolalar to'qnashuvda** chunki ularda

M.A.Ashurova	Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning psixologik omillari	263
A.Xolliyeva	O'quvchilar jamoasida sog'lom raqobat muhitini yaratishda psixologik xizmatning o'rni	267
O. S. Ishmatova	Alohida ehtiyojli bolalarning nutqini rivojlantirishda fonetik ritmika mashg'ulotlariga tavsiyalar	269
J.Yuldashev	XIX asrda quyi zaraфшонда бошланган археологик кузатишлар ва уларнинг натижалари хусусида	272
O.O.Negmatov	Tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish	280
M.G'.Dehqonova O.A.Abduvaliyeva A.F.Safarova	O'qitishda imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy moslashuvi masalasiga doir	282
O. S .Ishmatova. A.P Kravchenka R.R.Karimova Y.F. Abduraximova S. Karimova. E.T.Jabborova	Kichik maktab yoshidagi dislalik o'quvchilarida fonematik idrokni va barmoqlar harakatchanigini tekshirish jarayoni	285
A.T.Saydullayev	Maktab o'quvchilari o'rtasida nizolarning oldini olish	294
O. C.Ишматова С.М.Каримова Ю. Ф.Абдурахимова	O'quvchilarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarni tarbiyalashda harakatli o'yinlarning qo'llanilishi	297
J.X.Chinmirzayev	Роль фонематического восприятия в развитии речи ребёнка	304
O.C.Ишматова A.П.Кравченко	Maktabda mediatsiya xizmatining tashkil etilishi	311
X.Xusanov Z.Saidjonova M.M.Xolboyeva	Роль мелкой моторики в развитии речи ребёнка.	314
D.G'. Mirzayeva	Boshlang'ich ta'limda steam texnologiyasi yordamida fanlarni bir biriga bog'lab o'qitish Darslarni steam yondashuvi asosida joriy etish masalalari	319 323
	Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslangan noan'anaviy darslarni tashkil qilish usullari	327

Sh.A.Burxonova	Axloqiy tarbiya bola shaxsini shakllantirishning asosiy omili	330
G.X.Nazarova	Yigitlari oriyatli yurtning qizlari nomusli bo'ladi	333
G.N.To'rayeva	Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslangan noan'anaviy darslarni tashkil etish va didaktik o'yinlardan foydalanish usullari	335
M.I.Abdujabbarova	Adabiyot darslarida pedagogik tenologiyalardan unumli foydalanish mahorati	338
G.N. Suvanova	Mexanika bo'limiga doir ma'lumotlarni tushuntirishda samarali texnologiyalar	342
K.Qo'shmurodova	Kimyo fanini o'qitishda hamkorlik ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari	344
N.T.Xo'jamqulova	O'quvchilarni ijodiy loyiha ishlarini baholash mezonlari va kompetensiyalari	348
M.A.Muradova	Texnologiya fanining modernizatsiyalash va rivojlantirish tendensiyalari	353
G'.To'rayev	Bola tarbiyasida ota ona va oilaning o'rni	357
Sh.M.Omonboyeva	"Tarbiyasi qiyin" o'smirlarning kelib chiqishining ijtimoiy – pedagogik omillari	360
S.M. Abdullayeva	Shaxs psixologiyasidagi muammolar paydo bo'lishining sabablari va bolada deviant xatti-harakatlarga moyillik	363
S.Ya.Shayqulova	O'z-o'zini bilish asosidagi o'zlikni anglash	366
G.N.Suvanova	Integratsiyalashgan ta'limni darslarda tadbiqu	368
H.Orziyeva	Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda badiiy adabiyotning o'rni	371
M.A.Ismoilova	Ta'limni rivojlantirishda tarbiyaning o'rni	378
Sh.Rizayeva	Inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari	383
O.Ochilov	Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy, ahloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirish	399
O. Urdushov	Kechki badantarbiyaning foydalari	404
Н. А.Абдукаримов А. А.Яқубов	Эффективные методы обучения подвижным играм детей начальных классов	408